O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Yevropa fanida kreativlikni o'rganish insonning ushbu muhim qobiliyatining murakkabligini aks ettiruvchi boy va xilma-xil bilimlarni o'z ichiga oladi. Tarixiy falsafiy munozaralardan tortib, zamonaviy fanlararo tadqiqotlargacha yevropalik olimlar kreativlikni tushunish va rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. Kelajakdagi tadqiqotlar kreativlik sirlarini ochishda davom etadi, shaxsiy va jamiyat farovonligini oshirishi mumkin bo'lgan yangi o'lchovlar va ilovalarni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. HarperCollins.
2. Kaufman, J. C., & Sternberg, R. J. (2010). The Cambridge Handbook of Creativity. Cambridge University Press.
3. Piaget, J. (1972). Psychology and Epistemology: Towards a Theory of Knowledge. Penguin Books.
4. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood. Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 7-97.
5. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92-96.

OILADA ZO‘RAVONLIK

Samatova Nigora, Sadriddinova Zarnigor,
Zarpillayeva Shoxista
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. Hozirgi kunda jamiyatdagi global muammo xotin-qizlarda uchrayotgan zo‘ravonlikdir.Xotin -qizlarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xotin-qizlardagi zo‘ravonlikni kamaytirish va bu bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bugungi maqolamizda yoritib beramiz. Mamlakatimizda zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha islohotlar o‘tkazilmoqda. Bu islohotlar, albatta xotin -qizlarning jamiyatdagi o‘rni va qadr -qimmati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, ruhiy zo‘ravonlik, ayollar qadri,himoya orderi,joniga qasd qilish, jismoniy zo‘ravonlik, xotin -qizlarning o‘rni, huquqiy konsultant.

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha turli xil qarorlar qabul qilinmoqda.2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti "Xotin -qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonunni imzoladi.Ushbu qonun O‘zbekistonda ayollarning kamsitilishi va ayollarga zo‘ravonlik ko‘rsatishning barcha shakllariga nisbatan qonuniy choralarni belgilab berdi.

Xotin -qizlarning jamiyatdagi o‘rni kundan kunga yuqorilab bormoqda. Ayollar va erkaklarga nisbatan "Gender tenglik" tushunchasi kiritildi.Bu ayollar va erkaklar teng huquqli ekanligidan dalolat beradi.Bugungi kunda ayollarimiz ham yuqori rahbar lavozimlariga ham tayinlanmoqda.Masalan, Senat raisi T.Norboyevani ham namuna qilib ko‘rsatishimiz mumkin. 2019-yilning noyabr va dekabr oylarida

200dan ortiq ayollarga malakali ekspertlar tomonidan bepul huquqiy konsultatsiya o‘tkazildi.Mazkur loyiha bilan hamkorlikda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollar ishtirokida (shaxsiy ma’lumotlari sir saqlangan holda) videorolik tayyorlandi. Ayollar ko‘proq oilasida ruhiy zo‘ravonlikka uchramoqda. Turmush o‘rtog‘i tomonidan do‘pposlangan ayollar ko‘plab uchramoqda.O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori bilan jabrlangan ayollarga ichki ishlar organlari tomonidan himoya orderi berish tartibi belgilandi.Himoya orderi zo‘rlovchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi aloqani va bir xonada bo‘lishni taqiqlashni nazarda tutadi. Himoya orderi 30 kunga beriladi. Albatta, mamlakatimizda qilinayotgan bu ishlar bejizga emas. Xotin -qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.Bakalavrdan so‘ng magistraturaga o‘qishga kirgan xotin -qizlarning kontaktlari davlat tomonidan to‘lab berilmoqda.Chunki yosh avlodni bilimli va intellektual salohiyatini yuqori qilib tarbiyalash ayollarimiz zimmasidagi mas’uliyatni vazifa desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, zo‘ravonlik bu jinoyat. Zo‘ravonlik bizning madaniyatimiz emas. Bu so‘zlar zamirida chuqur ma’no bor. 2021-yilning 15-apreliga qadar Ombudsman nomiga xotin -qizlar tomonidan 20ga yaqin jinsiy va jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy tazyiq o‘tkazish bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha murojaatlar kelib tushgan. Ularning aksariyati Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to‘g‘ri keladi.Zo‘ravonlikni kamaytirish uchun unga beriladigan jazoni kuchaytirish zarur.Ayollar farzandlari uchun, atrofidagi gap-so‘zlardan qo‘rqib ham oiladagi jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikka chidab kelishadi.Ammo bunday muhit farzandlar kelajagiga ta’sir etadi.Har bir inson davlat himoyasida bo‘ladi. Har bir inson tinch yashash huquqiga ega.Shunday ekan har bir ayol qizlarimiz zo‘ravonliksiz hayotda xavfsiz va farovon yashashga haqli.Ularning bunday huquqlarini poymol qilgan shaxslar qonun oldida javob beradilar. Undan tashqari ayollarga foizsiz kreditlar ajratilmoqda.Tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan ayollarimizga ham bir qancha keng imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berilmoqda. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan o‘zaro huquqiy maslahatlar olib borilmoqda.Zo‘ravonlik kelajakni barbod qiladi. Zo‘ravonlikka uchrab o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lgan ayollarimizga psixoterapevtik yordam ko‘rsatilmoqda.Psixologlar bunday ayollar bilan alohida shug‘ullanib motivatsiya orqali hayotga bo‘lgan ishonchini tiklamoqda.Jinsiy zo‘ravonlikka uchragan qizlar o‘z joniga qasd qilib qo‘ymoqda.Shuning uchun bunday ishlarni oldini olish uchun maktablarda ham targ‘ibot ishlarini olib borish zarur.

Hozirda ishonch telefonlari orqali zo‘ravonlik qurboniga aylangan xotin -qizlarg hayotdagi mavjud og‘ir vaziyatlardan chiqishga yordam berilib,ularga zarur ruhiy, huquqiy hamda tibbiy ko‘mak berilmoqda.Murojaatchi xotin-qizlarning xohishiga ko‘ra, uning shaxsi va murojaat mazmuni sir saqlanadi.O‘z atrofidagi xotin -qizlarning haq-huquqlari toptalayotganligiga guvoh bo‘layotgan yoki boshqa salbiy holatlarga duch kelgan yurtdoshlarimiz ham "1146" ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilib,bu haqida xabar berishlari mumkin.O‘zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik holatlari kamaygan,ammo ruhiy v iqtisodiy zo‘ravonlik ortib bormoqda.Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Marufovaning ta’kidlashicha,mamlakatda ayollarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik ikki barobarga kamaygan. Jamiyatimizda ayollarning

o‘rni shu darajada yuksak ekanligidan har birimiz quvonsak arziydi. Hozirgi kunda bizdan talab etilayotgan muhim narsa bilim. Biz o‘zimizning yuksak bilimimiz orqali Vatanimiz ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Jamiyatdagi har qanday illatga qarshi kurashni oiladan boshlasakkina uni ildizi bilan quritish mumkin. Huquqbuzarlik, jinoyatchilik, korrupsiya kabi illatlarga qarshi kurash qanchalik keng ko‘lam kasb etmasin, natija maqtanarli emas. Aslida har bir inson oilada ularga qarshi immunitet bilan tarbiya topsa – olam guliston, o‘z-o‘zidan barham topib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. (o‘quv qo‘llanma)T. O‘zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi.2013. -143 b
2. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. Ma’ruzalar matni. 2013.-141 b
3. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. -T., O‘zMU «Universitet», 2013
4. Bolalarga o‘smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G. V. Burmenskoy E. I. Zaxarova O. A Karabonova va boshqalar-M. , , Akademiya, , 2012 - 112s.
5. Dolgova V. I. O‘smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish;ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk;ATOCSO, 2010-112S
6. Samatova, N. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.
7. Samatova, N. (2023). O'zmir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning ro'li. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.
8. Samatova, N. (2023). Shaxslararo muloqatda uchraydigan qiyinchiliklar. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.
9. Samatova, N. (2022). Oiladagi salbiy muloqatning farzand tarbiyasiga ta'siri. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali.
10. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologoya va turli xil psixologik amaliyotlar. Scientific Impulse, 1(5), 820-822.
11. Davlataliyevna, S. N. (2022). Psychology and its principles. Scientific Impulse, 1(5), 823-826.
12. Саматова, Н., & Абдурасулова, С. (2023). Психологическая связь и межличностный конфликт в педагогическом общении. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 433-434.
13. Samatova, N. va Namuratova, M. (2023). Psixologiyada shaxsiy muammosi. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (2), 408-413.
14. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari .

15. Samatova, N. va Subxiddinov, S. (2023). O'z-o'zini imidji va shaxsiy o'zini o'zi qadrlash muammosi. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (1), 435-437.



5-SHO‘BA
ZAMONAVIY JAMIYATDA FILOLOGIYA, TILSHUNOSLIK VA DIDAKTIKA

РОЛЬ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ ОБЩЕСТВЕ И ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

к.п.н., доц. Титова Ольга Александровна
Тульский государственный педагогический университет, Россия
Дементьева Наталья Евгеньевна
студентка 5 курса факультета иностранных языков
Тульский государственный педагогический университет, Россия
olga-titowa@yandex.ru

Аннотация: рассматривается понятие социокультурной компетенции, анализируется роль социокультурных знаний и умение их применять в создании условий для межкультурного общения в обществе и на уроке иностранного языка.

Ключевые слова: социокультурная компетенция, иностранный язык, межкультурное общение.

Современный мир достаточно противоречив. С одной стороны, происходят процессы глобализации, а с другой – ухудшаются межэтнические отношения и этнические конфликты становятся все более ожесточенными. Этнические конфликты сегодня являются реальной проблемой. Большинство ученых утверждают, что этнический конфликт – едва ли не самая опасная внутренняя угроза государству, поскольку это дестабилизирует общество, препятствуя социально-экономическому развитию. Большинство особенностей